

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 31-oktabr, № 223 (8846) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

NAVOIY VILOYATI:

KENG IMKONIYATLAR VA YUKSAK SALOHIYAT

Prezidentimiz har gal joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borishi bilan tanishar ekan, hududlar imkoniyatidan kelib chiqib yangi korxonalar tashkil etish, ish o‘rinlari yaratish, odamlarni qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf qilish borasida qator vazifalar belgilab, yangilanishlar sur’atiga shiddat beradi. Shu ma’noda, bugun Navoiy viloyatidagi o‘zgarishlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlatimiz rahbarining har bir tashrifi samarasi o‘laroq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ko‘lami kun sayin kengayib borayotganini ko‘rish mumkin. Pirovardida 1 mln. 100 mingga yaqin aholi yashaydigan viloyat ahli “ertaga emas, bugun yaxshiroq yashash kerak” degan tamoyil ifodasini o‘z hayoti misolida yanada teran his qilmoqda.



Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar



Soylar so‘ylar ajib ertagin...

Nurota tumanining Qizilcha qishlog‘i Qoratog‘ etaklarida joylashgan. U o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida qorako‘lchilikka ixtisoslashtirilgan davlat xo‘jaligining ma’muriy markazi sifatida tashkil etilib, aholisi yaqin atrofdagi qishloqlardan ko‘chib kelgan. Qishloqdan o‘n chaqirimcha G‘arbda Pistali deb ataluvchi tepaliklar, Qizilqum muzofoti hadini belgilovchi soylar yastanib yotibdi. Ayni ko‘klamda ushbu kengliklar chunonam chiroy ochadiki, u qizilchalik shoir Muhammad Rajabga **“Tog‘lar kiydi guldor ko‘ylagin, Soylar so‘ylar ajib ertagin...”** degan misralarni bitishga ilhom bergan bo‘lsa, ajab emas.

➡ 3

Anjuman

Markaziy Osiyo yosh yetakchilarining muhim platformasi

Poytaxtimizda “Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi: Barqaror suv harakati paradigmasini o‘zgartirish” mavzuida ikki kunlik mintaqaviy forum boshlandi. Konferensiya Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili va Xalqaro Nordik universiteti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Konferensiya suv resurslarini boshqarish va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarning muhim mavzulari bo‘yicha Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo “Yo‘l xaritasi” ijrosi doirasida mintaqaning beshta davlatidan 100 nafarga yaqin yoshlarni o‘zida jamladi. Anjumanda talabalar, tashabbuskor yoshlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari, tadqiqotchilar, yosh siyosatchilar, ekspertlar qatnashmoqda.

Uning ochilishida O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri Shavkat Hamroyev, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Zulfiya Suleymenova, Tojikiston Respublikasi energetika va suv xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari Jamshed Shoimzoda nutq so‘zladi.

Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi mintaqa yoshlarini hamkorlikka jalb etish hamda ularni tinglash, kun tartibidagi mavzularni targ‘ib qilish imkoniyatini beradi. Xususan, tadbir orqali Barqaror suv harakatiga yoshlar e’tibori jalb etiladi. Konferensiya Markaziy Osiyo va mintaqalar bo‘ylab mintaqaviy muloqot hamda sheriklikni kuchaytiradi, shuningdek, iqlim barqarorligi va suv resurslarini boshqarish bo‘yicha harakatlarini tushunishni ta’minlaydi.

Konferensiya oliy darajali panel va barqaror suv harakati bo‘yicha Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo hamkorligi hamda Markaziy Osiyodagi suv inqirozini hal qilishda yoshlarning roliga bag‘ishlangan tematik sessiyalarni, shuningdek, bir nechta interfaol seminarlarni o‘z ichiga oladi. Ularda ishtirokchilar suvdan foydalanish samaradorligi, tejamkorlik va suv diplomatiyasi kabi o‘zaro manfaatli mavzularni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ushbu anjuman Markaziy Osiyoning yosh yetakchilari uchun suv bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini bildirish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi hamda ko‘plab sohalarda hamkorlik va fikr almashishga yordam beradi.

So‘z – konferensiya ishtirokchilariga

Teri XAKALA,
YElning Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili:

– O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Mintaqa aholisining katta qismi ham O‘zbekistonda joylashgan. Shuning uchun biz ushbu anjumanni O‘zbekistonda o‘tkazishga qaror qildik. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda iqtisodiy imkoniyati keng, Yevropa Ittifoqi tarkibidagi davlatlar bilan faol, konstruktiv muloqot olib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Aytib o‘tishim joizki, keyingi yillarda birgalikda yaxshi natijalarga erishdik. 2022-yil Samarqandda o‘tgan tadbirlar o‘zaro aloqani tubdan ijobiy tarafga o‘zgartirdi deyish mumkin. Ayni tajriba asosida bu yil ham kutilgan muvaffaqiyatlarga erishmoqchimiz. Umuman, Markaziy Osiyo bilan hamkorlikni, ikki mintaqa manfaati uchun xizmat qiladigan yuqori darajadagi tadbirlarni muhim tashabbuslar, loyihalar bilan boyitishda davom etamiz.

➡ 2

Mushohada

YORQIN KELAJAK UCHUN “AQLLI” TEXNOLOGIYALAR

Joriy yilning 13-avgust kuni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev sun’iy intellekt va IT sohalaridagi startap loyihalarni rivojlantirish chora-tadbirlariga doir taqdimot bilan tanishar ekan, yurtimizda ushbu tarmoqlarni yanada yuksaltirish va yangi bosqichga olib chiqish xususida alohida to‘xtalib o‘tdi.

Bunda Prezident tomonidan sohaga doir mustahkam qonunchilik bazasini yaratish, sun’iy intellektni joriy etish strategiyasi hamda o‘rta muddatli loyihalar dasturini ishlab chiqish kabi qator muhim vazifalar belgilandi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari markazini tashkil qilish bo‘yicha muhim topshiriqlar berildi. Sun’iy intellektni iqtisodiyotimizga keng joriy etish, jumladan, bank-moliya sohasida undan foydalanishni yanada rivojlantirish, buning uchun yetuk raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Qayd etish joizki, Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2021/2022 o‘quv yilida bitta oliygohda, keyinchalik esa yana 3 ta oliy ta’lim muassasasida sun’iy intellekt bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ammo bugungi kunda sohada katta ma’lumotlarni qayta ishlash va til modellari bo‘yicha deyarli 600 nafar mutaxassisga talab mavjud. Taqdimot chog‘ida Prezidentimiz shularni ham inobatga olib sohalar kesimida talabga mos mutaxassislar tayyorlash va ularni sifat jihatdan har yili oshirib borish muhimligini ta’kidladi.

Sun’iy intellekt nima?

Xo‘sh, sun’iy intellekt o‘zi nima? Jahon mamlakatlarida u qay darajada rivojlanmoqda? Insoniyatning hayoti kelgusida sun’iy intellektga bog‘liqmi?

Keyingi yillarda sayyoramizda yuz bergan turli beqarorlik, ertangi kunda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar va iqtisodiy inqirozlar, ekologiyaning keskin o‘zgarishi insoniyat turmush tarzini sezilarli darajada o‘zgartirib yubormoqda. Natijada odamzod yashab qolish uchun o‘ziga kerakli bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Buning oqibatida hayotimizga “Sun’iy intellekt” (AI), “3D model”, “internet buyumlar” (IoT), haydovchisiz boshqarish, blokcheyn, immunoterapiya kabi mutlaqo yangi tushuncha va texnologiyalar kirib kelmoqda. Ular yaqin kelajakda dunyoni tubdan o‘zgartirib yuboradigan yangilik sifatida baholanmoqda.

➡ 4

Agrar va suv xo‘jaligi:

DOLZARB MUAMMOLARNI HAL ETISHNING HUQUQIY POYDEVORI MUSTAHKAMLANMOQDA

Agrar tizimi nafaqat aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, balki sanoatning ko‘pgina sohalarini xomashyo bilan ta’minlovchi muhim tarmoqlardan sanaladi. Shu bois mamlakatimizda keyingi yillarda ushbu sektorga investitsiyalarni jalb qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida mahsulotlar yetishtirishni rag‘batlantirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Tahlil

Yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini yaratish maqsadida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi bugungi kunda sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kabi qator ustuvor masalalarda dasturilamal bo‘lib xizmat qilayotir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim vazifa sifatida o‘rin olgan.

Shu o‘rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi sohasida tizimli islohotlar ro‘yobga chiqarilayotgani, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilib borilayotgani natijasida mamlakatda qulay agrobiznes muhiti shakllanganini alohida qayd etish joiz. Dehqon va fermerlar og‘iri yengillashtirilib, ish o‘rinlari yaratildi. Masalan, 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, yurtdoshlarimizga tanlov asosida berilgani hisobiga 2 milliondan ortiq doimiy va mavsumiy ish o‘rinlari tashkil etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi ham besh yillik faoliyati davomida ushbu yo‘nalishda samarali ish olib bordi. Hisobot davrida qo‘mitamiz tomonidan qishloq xo‘jaligiga oid islohotlarning samaradorligini ta’minlash, sohaning huquqiy asosini mustahkamlash, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni jadallashtirish hamda ta’sirchan parlament nazoratini olib borishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

➡ 2

Fakt va raqamlar

“AYOLLAR, BIZNES VA HUQUQ” WBL INDEKSI TAHLILI

Jahon bankining “Ayollar, biznes va huquq” WBL indeksi tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun huquqiy rejimdagi gender farqlari ko‘rsatkichlarining 6 yil davomida o‘zgarishi dinamikasi o‘rganib chiqildi.

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.

WBL indeksi O‘zbekiston uchun ustuvorlik kasb etgan xalqaro reytinglar ro‘yxatiga kiritilgan.

2024-yilda ikkita yangi ko‘rsatkich joriy etildi:

- **“zo‘ravonlikdan xavfsizlik”;**
- **“bolalar parvarishi xizmatlaridan foydalanish imkoniyati”.**



O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdi:

- 2024-yilda O‘zbekiston eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan 5 ta davlat qatoriga kirdi.
- 2022-yildan 2023-yilgacha 4 ta islohot amalga oshirilgan bo‘lib, ular ikkita ko‘rsatkich: “mehnat qilish” va “nikoh”ga ta’sir ko‘rsatdi, bu esa reytingda 11,9 punktga – belgilangan 100 balldan 82,5 ballgacha ko‘tarilishiga olib keldi.

Agrar va suv xo‘jaligi:

DOLZARB MUAMMOLARNI HAL ETISHNING HUQUQIY POYDEVORI MUSTAHKAMLANMOQDA

1 O‘tgan davrda qo‘mitamiz qonun ijodkorligi yo‘nalishida 49 ta qonun loyihasi uchun mas’ul bo‘ldi va ulardan 45 tasi qabul qilindi. Qolaversa, qo‘mitamiz a’zolari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 7 ta qonun loyihasi ishlab chiqildi va Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritildi.

“O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”, “Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”, “O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida”, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi kabi qonunlar shular jumlasidan.

Birgina “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun yillar davomida turli sabablarga ko‘ra to‘la-to‘kis qonuniy hujjatlarga ega bo‘lmagan holda qurilgan uy-joylar va yer uchastkalari huquqiy e’tirof etilishiga imkon berdi.

Unga ko‘ra 2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar yakka tartibdagi, uy-joy qurgan holda o‘zboshimchalik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga nisbatan mulkiy huquqlar tan olinadi. Ushbu vaqtga qadar fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko‘rsatilgan maydondan ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga esa ko‘chmas mulklarga nisbatan huquqlar beriladi.

Ko‘plab oilalar hayotiga daxldor bo‘lgan ushbu hujjat uzoq yillar mobaynida odamlarni qiynab kelgan uy-joyga ega bo‘lish borasidagi dolzarb muammolarni huquqiy jihatdan hal etishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi. Bugungi kunda ushbu qonun xalqimiz, tadbirkorlarimiz va mulk egalari tomonidan iliq kutib olinmoqda.

Qo‘mitamiz mas’ulligida qabul qilingan yana bir muhim hujjat – “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun bo‘ldi. Ushbu hujjat bilan tomorqa xo‘jaliklarini yuritishni tashkillashtirish va ularni rivojlantirish sohasidagi munosabatlar tartibga solindi. Xususan, mazkur qonunda shaxsiy tomorqa yer uchastkalaridan tomorqa xo‘jaligini yuritish uchun foydalanuvchi shaxslarning huquqlari va majburiyatlari, tomorqa xo‘jaliklarini yuritishni tashkil etish hamda ularni rivojlantirish sohasidagi respublika ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlarining vazifalari belgilab qo‘yildi.

Aytish mumkinki, bugungi kunda respublikamizda 5,5 mln.dan ortiq tomorqa xo‘jaliklari 590 ming gektar yer maydonlarida faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ular tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xalqimiz dasturxonining to‘kinligini ta’minlamoqda.

“Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun bilan esa dehqon xo‘jaliklariga ko‘plab imtiyoz va imkoniyatlar berilgani e’tiborga molik. Bunday sharoitlar ilgari dehqonlar, qishloq xo‘jaligi yerlari egalari uchun faqat orzu bo‘lgan bo‘lsa, bugun ularda yangi O‘zbekistonda yaratilayotgan ana shunday ko‘plab imtiyozlardan unumli foydalanib, o‘z dehqon xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish, hech kimga qaram bo‘lmagan holda erkin faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Quvonarlisi, ushbu qonun asosida suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan paxta va g‘alladan qisqartirilgan 253 ming gektardan ortiq yer maydonlari 863 mingga yaqin fuqarolarga dehqon xo‘jaligi tashkil etish orqali sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun 30 yilga ijaraga berildi. Bu yerlarda oilaviy tadbirkorlik rivojlantirilib, kichik intensiv bog‘dorchilik, uzumchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish va sabzavotchilik loyihalari qo‘llab-quvvatlanib, ehtiyojmand oilalarning daromadli mehnat bilan bandligi ta’minlanmoqda.



Qo‘mitamiz mas’ulligida qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatimizda yerga oid munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan islohotlarning huquqiy asosi yaratilishiga zamin bo‘ldi.

Ushbu qonun bilan Yer kodeksiga, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Yaylovlar to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida” hamda “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, endilikda talabgor jismoniy yoki yuridik shaxsga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish faqatgina elektron onlayn-auksion vositasida amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Shubhasiz, ushbu hujjat qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga berishda turli bahsli mezonlarga barham beradi. Ya’ni barcha uchun teng bo‘lgan elektron onlayn-auksion savdolari joriy etilishiga, yer uchastkalari ijarachilariga ijaraga olingan yerlarga nisbatan o‘z huquq va majburiyatlarini yerdan foydalanish maqsadini o‘zgartirmagan holda boshqa shaxsga o‘tkazishiga, qishloq xo‘jaligi yerlarining bozor aktiviga aylanishiga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda “Qishloq xo‘jaligi xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonun bilan dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni etib belgilanganini alohida qayd etish joiz. Bu ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan ishchi-xizmatchilarning mashaqqatli mehnatlarini qadrlashga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasi, desak yanglishmaymiz.

O‘tgan davrda qo‘mitamiz tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan samarali foydalanish, tomorqa va uy xo‘jaliklaridagi imkoniyatlarni kengaytirish, aholini mahsulot ishlab chiqarishga o‘rgatish, yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish, suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanishga oid ishlar ustidan ta’sirchan parlament nazoratini olib borishga ham mas’ullik bilan yondashildi.

Nazorat-tahlil faoliyatimiz doirasida 84 ta tadbir o‘tkazildi. Jumladan, qo‘mitamiz a’zolari joylarga chiqqan holda “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” hamda “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlar ijro etilishi holatini nazorat-tahlil tartibida o‘rgandi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli mutasaddilarning axboroti qo‘mita majlislarida eshitildi.

Bundan tashqari, saylovchilar tomonidan ko‘tarilayotgan masalalar va joylarda olib borilayotgan o‘rganishlar davomida aniqlangan kamchilik hamda muammolarga mutasaddilar e’tiborini qaratgan holda parlament nazoratining ta’sirchan shakllaridan unumli foydalanildi. Qo‘mitamiz tashabbusi bilan davlat organlarining mansabdor shaxslariga 6 ta parlament so‘rovi yuborildi.

Chaqiriq davrida qo‘mitamiz Qonunchilik palatasida o‘tkazilgan 6 ta “parlament eshituvi”ni hamda 4 ta “hukumat soati”ni tashkil etishga tashabbuskor fraksiya bilan birgalikda mas’ul bo‘ldi.

Qo‘mita a’zolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan 97 ta deputat so‘rovi yuborildi.

Hisobot davrida fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, aholini o‘ylantirayotgan masalalarni o‘rganish va joylardagi mavjud muammolarni bartaraf etish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Qo‘mita nomiga kelib tushgan jami 2 197 ta murojaat belgilangan tartibda ko‘rib chiqildi va ularning aksariyatiga ijobiy yechim topildi.

Aholi bilan yaqindan muloqot qilish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning qabullari ham uyushqoqlik bilan olib borildi. Jumladan, turli masalalar yuzasidan 607 nafar jismoniy va yuridik shaxs vakillari qabuli tashkil etildi. Ular tomonidan 528 ta masala ko‘tarilgan bo‘lib, aksariyat murojaatlar deputatlar sa’y-harakati natijasida o‘z yechimini topdi.

Iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo‘lgan agrar sohada keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugun o‘z natijalarini bermoqda. O‘z navbatida, qo‘mitamiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan davlatimiz siyosatini ro‘yobga chiqarishda faol va tashabbuskor bo‘lib, oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishdi, desak, yanglishmaymiz. Shubhasiz, qo‘mitamiz agrar tarmoqda olib borilayotgan islohotlarning tom ma’nodagi faol ishtirokchisi bo‘lish uchun bor salohiyatini ishga solgan holda faoliyatini yanada takomillashtirib boraveradi.

Ravshan MAMUTOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi.

Markaziy Osiyo yosh yetakchilarining muhim platformasi



1 Yana bir gap. Avvalo, O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning alohida bir qismi sifatida hurmat qilamiz. Qolaversa, O‘zbekiston mintaqadagi muammolarni, xususan, suv bilan bog‘liq vaziyatning yaxshilanishi uchun samarali yechim topishga harakat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha hududlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida atrof-muhit, suv resurslari va iqlim o‘zgarishi kabi sohalarda qator ijobiy natijalarga erishyapmiz, ko‘plab mintaqaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu sa’y-harakatlar izchil davom ettiriladi. O‘ylaymanki, o‘tkazilayotgan bu safargi anjuman ham suv muammolarini yechish, yoshlar e’tiborini ushbu dolzarb masalaga qaratish imkonini beradi.



Shavkat HAMROYEV,
O‘zbekiston suv xo‘jaligi vaziri:

– O‘tkazilayotgan tadbirda mintaqamizning barcha mamlakatidan iqtidorli, bilimga chanqoq yoshlarning ishtirok etayotgani bizni quvontiradi. Suv taqchilligi sharoitida mintaqamiz kelajagi qanday bo‘lishi ularni ham tashvishga solyapti. Haqiqatan ham, dunyo miqyosida suv taqchilligi yaqqol sezilmoqda. BMTning so‘nggi hisobotlariga nazar solsak, dunyo mamlakatlari yarmining chuchuk suv tizimlari buzilgan. Chuchuk suv ekotizimlari, jumladan, daryolar, ko‘llar va suvli qatlamlar kamayib, tanazzulga yuz tutmoqda. Global iqlim o‘zgarishi natijasida oxirgi 50 – 60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. 2050-yilga borib chuchuk suv tanqisligi mintaqamizda yalpi ichki mahsulotning 11 foiz pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizdagi suv resurslarining 20 foizi o‘zimizda, katta qismi qo‘shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o‘zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish bo‘yicha vaziyat ham jiddiy. Mana shunday sharoitda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan suvdan oqilona foydalanish, uni tejamkorlik bilan ishlatish, tizimni raqamlashtirish, tomchilab sug‘orish texnologiyalarini ommalashtirish tajribalari mintaqa mamlakatlarida keng qo‘llanila boshlandi.



Boz ustiga bundan 30 – 40 yil avval yaratilgan infratuzilma jiddiy modernizatsiyani talab qiladi. Suv resurslari bilan ta’minlanish kamayib, yangi obyektlar va aholi soni ko‘payib bormoqda. Bu esa suv resurslarining yangi miqdori va sifatini talab qiladi. Bizning hisob-kitoblarga ko‘ra 2030-yilga borib bizga 7 mlrd. kubometr suv yetishmaydi. Suvdan oqilona foydalanish zarur. Kanal va ariqlarni betonlash ham muhim.

Bizningcha, suv o‘tkir masalaga aylangan hozirgi vaziyatda barqaror suv harakati paradigmasini o‘zgartirish maqsadida o‘tkazilayotgan mintaqaviy konferensiya ko‘p tomonlama muloqot asosida ijobiy natijalarga erishish, ertangi kun egalari bo‘lgan yoshlar e’tiborini mavzuga qaratish, umumiy taraqqiyot uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amaliy yechimlar ishlab chiqishda ayni muddao bo‘ldi.

Marta Saragosa NAVARRO,
Jahon yoshlar parlamenti global suv targ‘iboti bo‘yicha rahbari:

– Anjumanda yoshlarni ertaga o‘zimiz ko‘rishni istagan dunyoni shakllantirish jarayoniga qanday jalb qilish mumkinligini, shuningdek, ayni yo‘nalishda ilgari surilgan tashabbuslarni muhokama qilyapmiz. Ko‘plab mintaqalarda suv inqirozi kuzatilayotgan bir paytda olimlar va siyosatchilarning yangi koalitsiyalarini ko‘ryapmiz. Umid qilamizki, bugun harakatdagi yosh yetakchilarni ertaga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatga tayyorlay olamiz.

Men o‘z chiqishimda o‘zbek yoshlarining mamlakat bo‘ylab yechimlarni tatbiq etish, suvdan oqilona foydalanish, mahalliy sanitariya inshootlaridan foydalanish imkoniyati haqida gapirdim. Umuman, ushbu forum orqali ilg‘or tajribani o‘rtoqlashish, shuningdek, O‘zbekiston soha taraqqiyoti uchun nimalar taklif qila olishi, xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini bilib olyapmiz.

Shuningdek, suv resurslarini to‘g‘ri boshqarish butun dunyoda, jumladan, Markaziy Osiyoda ham juda dolzarb. O‘ylaymanki, suv muammosini hal qilishda ko‘hna qit’a tajribasi mintaqa uchun foydali. Shuning uchun Markaziy Osiyo uchun suv energetikasi va iqlim masalasiga doir Yevropa jamoasi tashabbusini mazkur konferensiya orqali targ‘ib qilmoqchimiz. Bu jarayonga yoshlarni jalb etish juda muhim, chunki Markaziy Osiyo aholisining katta qismini aynan yoshlar tashkil qiladi.



Asxat ORAZBAY,
Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ijroiya qo‘mitasi raisi:

– Urbanizatsiyaning davom etishi, iqlimning isishi va iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan talablar mintaqaning cheklangan suv resurslariga bosimni kuchaytiradi. Qishloq xo‘jaligida suvdan samarasiz foydalanish eng katta tashvish tug‘dirmoqda. Markaziy Osiyoning ko‘p qismi eksport uchun bog‘dorchilik mahsulotlarini yetishtirishga yaroqli yuqori sifatli tuproqlarga boy, biroq qishloq xo‘jaligining ko‘pchiligi kam qiymatli, suvni ko‘p talab qiladigan ekinlarga mo‘ljallangan bo‘lib, suvdan samarasiz foydalanish uning iqtisodiy unumdorligini cheklaydi. Bu birlashgan omillarning barchasi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Markaziy Osiyoda isish global o‘rtacha ko‘rsatkichdan oshishi kutilmoqda. Natijada haddan tashqari suv toshqini hamda qurg‘oqchilik kuchayishi va ular bilan birga umumiy suv tanqisligi ortishi kutiladi. Mutaxassislarning bashorat qilishicha, suv inqirozi oziq-ovqat tanqisligi va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidentining bu yo‘nalishdagi tashabbuslarini olqishlamoq joiz. Ayniqsa, Orolbo‘yidagi ahvolni yaxshilash borasida. Orol dengizini avvalgi holatiga qaytarishning iloji yo‘q. Ammo O‘zbekiston hukumati Orolbo‘yi va Orol dengizi muammolariga milliy hamda jahon miqyosida katta e’tibor qaratyapti. Orol dengizining qurib qolgan hududida har yili o‘rmonlar barpo etilmoqda. Orolbo‘yi va qurib qolgan dengiz hududida yaratilgan “yashil qoplama”ning katta qismi saksovuldan iborat. Ushbu chora ham toza havoni ta’minlashga yordam beradi. To‘rt yillik saksovul o‘simligi bir gektar maydonga 1158 kubometr kislorod chiqaradi. O‘zbekiston tashabbusi bilan Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida trast fondi tashkil etildi, shuningdek, BMTning “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.



Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida iqlim ta’sirini yumshatish kuzatilmoqda. Bu hududda qazilgan o‘nlab artezian quduqlaridan suv ko‘tarilishi tufayli sun’iy ko‘llar paydo bo‘ldi. Atrofda qamishzorlar, daraxtlar va butalar o‘sgan. Asosiysi, nufuzli anjumanda Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyodan suv masalalari bo‘yicha yetuk mutaxassislar va ekspertlarning ma’ruzalari, dolzarb muammo yechimiga bag‘ishlangan tavsiyalari bilan chiqishlari o‘rin olgani va unda yoshlarimizning ishtirok etayotgani ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, anjuman mintaqamiz ertasi bilan bog‘liq suv va ekologiyaga oid muammolarni hal etish uchun sa’y-harakatlarni birlashtirishda muhim omil bo‘ladi. Markaziy Osiyoning yosh yetakchilariga suv bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini bildirish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘plab sohalarda hamkorlik va fikr almashishga yordam beradi.

“Xalq so‘zi”.

Turizm



XIVADA SAYYOHLIK YO‘NALISHLARI KO‘PAYADI

Uzoq tarixga ega, bag‘rida ko‘plab me’moriy yodgorliklarni saqlab qolgan qadimiy Xiva shahriga mahalliy va xorijlik sayyohlar qiziqishi hamda tashrif buyurayotganlar soni yil sayin oshib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, muzeylashtirish ishlarini yanada takomillashtirish va sayyohlik yo‘nalishlari sonini ko‘paytirishni taqozo etmoqda. Zero, Ichan qal’adagina emas, Dishon qal’a va undan tashqarida ham mehmonlarga manzur bo‘ladigan tarixiy manzillar yetarlicha.

Yaqinda “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda yana bir xayrli ishga qo‘l urildi, ya’ni Dishon qal’adan uncha uzoq bo‘lmagan hududda joylashgan xon qarorgohi hisoblanmish “Qibla tozabog‘” tarixiy-me’moriy majmuasi hamda vaziri akbar Islomxo‘ja yozgi hovlisida muzey bo‘limlari tashkil etishga kirishildi.

Ayni kunlarda ushbu yodgorliklarda ta’mirlash ishlari boshlandi. Muzey-qo‘riqxona ilmiy xodimlari respublikamizdagi malakali mutaxassislar, jumladan, Nukus shahridagi I. V. Saviskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi direktori T. K. Mkrtichev bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or tajribalarni qo‘llagan holda muzeylashtirishga doir rejalashtirish ishlari olib borilmoqda.

Yangi muzeylarning ishga tushishi kelgusida sayyohlik yo‘nalishlari sonining ko‘payishi, vohada turizm imkoniyatlarining oshishi, shuningdek, jahon hamjamiyatining mamlakatimizga e’tibori kuchayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Otabek ISMOILOV,
jurnalist.

2024-yil yanvar – sentabr oylarida internetdan foydalanuvchi 10 va undan katta yoshdagi aholi ulushi 92,7 foizni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATI:

KENG IMKONIYATLAR VA YUKSAK SALOHIYAT



Bugun ushbu hududda ertaklarga xos manzarani kuzatish mumkin. Ulkan burg‘ilash uskunalari, bahaybat ekskavator va avtoag‘dargich hamda ma’dan yuklagichlar harakatlanib, mazkur kengliklardagi noyob javohirni o‘zlashtirishga kirishdi. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasining 2021 – 2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining “Pistali” konida tarkibida oltin bo‘lgan ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash kompleksini qurish (6-GMZ)” investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari asosida 2023-yil 6-yanvarda oltin ma’dan tanalarini ochish uchun ilk portlatish ishlari amalga oshirilib, dunyo konchilik sanoatida yana bir yirik loyihaga start berildi. Kon negizida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 6-gidrometallurgiya zavodiga asos solinib, kon uskunalarini ta’mirlash sexi, avtosaroy, ishchilar shaharchasi va boshqa obyektlar qurilib, foydalanishga topshirildi.

– Bugungi kunda “Pistali” konidan qazib chiqarilgan tog‘ jinslari hajmi 17 million kubometrdan oshdi, – deydi kon bosh muhandisi Ramish Qudratov. – 2023-yilda 10,5 million kubometr tog‘ jinsi qazib chiqarilib, reja 110,2 foizga bajarilgan bo‘lsa, 2024-yil uchun tog‘ jinslarini qazib olish rejasi 14 mln. kubometr etib belgilangan. Joriy yilning birinchi yarmida qariyb 7,5 mln. kubometr tog‘ jinslari qazib olinib, reja ko‘rsatkichlari 117 foizga uddalandi.

Bugun “Pistali” sanoat maydonida qariyb bir yarim ming nafardan ziyod ishchi-xizmatchi, muhandis-texnik xodimlar faoliyat ko‘rsatyapti. Kon va yangi zavod uchun barcha turdagi ishchi-xodimlarni tanlash va tayyorlash haqida so‘z borarkan, xavfli yuklarni tashishga mo‘ljallangan avtomobillarni boshqarish, og‘ir yuk tashuvchi karyer avtoag‘dargichlarini boshqarish huquqlarini beruvchi maqsadli uch yo‘nalish bo‘yicha 70 nafardan ziyod haydovchilar turdosh kasblarga o‘qitilganini ta’kidlash joiz. Shuningdek, biror kasbga ega bo‘lmagan 59 nafar fuqaro viloyatdagi “Ishga marhamat” monomarkazida kimyoviy tahlil laboranti, ta’mirlovchi-chilangar, avtomobillarni ta’mirlash chilangari, elektromontyor kasblariga o‘qitilgach, “1-GMZ” kon boshqarmasida ishlab chiqarish tajribasini o‘tab, ishga qabul qilindi.

Ta’kidlash joiz, mamlakatimizda ustuvor tutilgan ijtimoiy adolat va inson qadri tamoyillariga tayangan holda yangi kon va korxonaga ishga qabul qilishda Nurota tumani hokimligining tavsiyasiga muvofiq “Temirqovuq”, “Qizilcha”, “Tinchlik” MFYlarda yashayotgan, “temir daftar”, “yoshlar daftari” va “ayollar daftari”da ro‘yxatda turuvchi, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar monomarkazda garderobchi, ko‘kalamzorlashtiruvchi va boshqa kasblarga o‘qitilib, ularning bandligi ta’minlandi.

Ushbu korxonaning ishga tushirilishi tufayli birgina bizning mahallamizdan 90 kishi ishli bo‘ldi, – deydi “Tinchlik” MFY raisi Rahima Qozoqova. – Ularning muayyan qismini turli ijtimoiy daftarlarda turuvchi fuqarolar tashkil etadi. Jumladan, ishga qabul qilishda “yoshlar daftari” va kambag‘allik darajasidagi oilalar a’zolariga ustuvorlik berildi.

Integratsiyalashuv sari

2024-yil 18-yanvar kuni investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qayd etilib, mamlakatimizda 24 ta maxsus iqtisodiy zonaga soddalashtirilgan tartibda yer ajratilishi, soliqdan imtiyozlar belgilanganiga qaramay, bu imkoniyatdan to‘liq foydalanilmayotgani tanqid qilindi, – deydi Navoiy maxsus iqtisodiy zonalar direksiyasi rahbari Habib Abdullayev. – Yig‘ilishda iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo‘yicha yangi tajriba amalga oshirilishi, xususan, Navoiy viloyatidagi maxsus sanoat zonalarining maydoni xorijiy kompaniyalarga autsorsing asosida boshqaruvga berilishi belgilandi.

Mazkur tanqid va belgilangan vazifalardan xulosa chiqargan holda har bir yo‘nalishda mahalliy xomashyo asosida qo‘shimcha qiymat yaratadigan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish mumkinligini ko‘rsatib bergan holda loyihalar ishlab chiqilib, investorlarga taklif qilindi.

Bugun Tatariston Respublikasining “KIP “Master” hamda “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi o‘rtasida bunyod etilayotgan “Master Navoiy” maxsus sanoat parki shuning samarasi bo‘lib, unga 64,4 gektar yer ajratildi.

Loyiha qiymati 178,9 mln. AQSh dollari bo‘lgan ushbu maxsus sanoat parkida mashinasozlik, qurilish materiallari, elektrotexnika hamda kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ijtimoiy ahamiyati shundaki, korxona ishga tushirilishi natijasida 1600 ta yangi ish o‘rni yaratilib, yillik ishlab chiqarish hajmi 210 mln. AQSh dollarini va yillik mahsulot eksporti esa 100 mln. AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda.



Siroj ASLONOV olgan suratlar.

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida hayotga tatbiq qilingan yana bir loyiha toza ichimlik suvi tanqisligini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya issiq va quruq hududlarda havodan ichimlik suvi olishga moslashgan dunyodagi birinchi qurilma hisoblanadi. Uskuna bir sutkada 1000 litr suv ishlab chiqaradi. Davlat ekspertizasining natijalariga ko‘ra, sanitariya-gigiyena ko‘rsatkichlari ushbu suvning iste’mol me’yorlariga to‘liq mos kelishini tasdiqladi. Eng muhimi, uskunaning o‘rtacha kunlik iste’moli jahon analoglaridan ikki baravar past va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish imkonini beradi. Bu aynan Navoiy viloyatining cho‘l mintaqalari uchun har jihatdan qulay.

– Uskuna havoning namligi 4 gr/m^3 va 10 – 70°C harorat oralig‘ida ishlaydi, – deya so‘zida davom etadi H. Abdullayev. – Xorijiy analoglarda esa bu ko‘rsatkichlar 8 – 10 gr/m^3 havo namligi va 25 – 38°C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ini tashkil etadi.

Mazkur uskuna mamlakatimizning cho‘l hududlarini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash muammolarini bartaraf etibgina qolmay, mahsulot eksportida ham yangi istiqbollarni ochadi. Shu kunga qadar Afrika, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoning 32 mamlakati uskunaning xaridi yuzasidan qiziqish bildirishdi. Shu asosda 2025-yilda “Navoiy” EIZ hududida yiliga 500 dona atrofida havodan ichimlik suvi oluvchi tejamkor uskuna ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Tiriklik manbai

Suv – tiriklik manbai. Hududining to‘rtdan uch qismini cho‘l egallagan Navoiy viloyatida aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash uzoq yillik muammo sifatida kun tartibiga chiqar ekan, “imkoni yo‘q”, degan qisqa javob olinar edi. Natijada viloyatda 2017-yil boshlarida hudud aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi 68,2 foizni tashkil etib, hatto bugungi kunda ham viloyatdagi mahallalarning 15 foizga yaqini ushbu bebaho ne’mat ta’minoti og‘ir bo‘lgan hududlar sanaladi.

Viloyatda ichimlik suvi ta’minoti yil yakuni bilan qariyb 85 foizga yetkazilishi rejalashtirilayotgan bo‘lsa-da, Xatirchi tumanida aholining 40, Qiziltepada esa 60 foizdan oshiqrog‘igina toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganligi, Karmana, Navbahor va Konimex tumanlarida belgilangan jadval asosida ichimlik suvi yetkazib berishda muammolarning mavjudligini inobatga olsak, ahvol ancha og‘irligi oydinlashadi. Tabiiyki, bular aholi kayfiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Basharti suv resurslari chegaralangan ekan, mavjudlarini chuchuklashtirish muammo yechimida eng samarador omil hisoblanadi. Mazkur masalada Karmana tumanida respublikamiz hududida ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti tadqiqotlari asosida ishlash muddati uzaytirilgan, dezinfeksiyalash xossasiga ega kumush nanozarrachalari bilan modifikatsiyalashtirilgan teskari osmotik membranalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu mahsulot iste’molga yaroqsiz suvlarni molekulyar darajada tozalab beruvchi uskunalarning asosiy va murakkab qismidir.

“AWAL TECH” MCHJ tomonidan amalga oshirilgan ushbu loyiha asosida bugungi kunda 2 turdagi mutlaqo yangi mahsulotlar: “AWAL 4040 teskari osmos membranasi”, “AWAL 8040 teskari osmos membranasi” ishlab chiqarilmoqda. Teskari osmos membranalarida kumush nanozarrachalardan foydalanilgani uning raqobatchi mahsulotlardan ustun bo‘lishini ta’minlaydi.

– Loyiha qiymati qariyb 1,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, oltita yangi ish o‘rni yaratildi, – deydi korxona rahbari Sanjar Ashurov. – Qilingan xarajatlar bir yilda o‘zini oqlaydi. Sababi, korxona quvvati yiliga 800 – 1000 donani tashkil etib, hozirning o‘zidayoq 1 mlrd. 700 mln. so‘mlik mahsulot realizatsiyasiga shartnomalar imzolandi.

Ta’kidlash joiz, mintaqamizda ichimlik suvi tanqisligi bilan bog‘liq muammolar yildan-yilga murakkablashib borar ekan, bu kabi loyihalarning ishga tushirilishi o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi qo‘shni mamlakatlardan ham buyurtmalar berilayotgani buning yaqqol dalili.

Tumanda amaliyotga joriy etilgan yana bir loyihaga esa Prezidentimizning 2021-yil 2-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni turtki berdi. Shu asosda Karmana tumanidagi Farhod mahallasining 1 ming 300 metr kvadratlik hududida 1 mlrd. 395 mln. so‘mga moliyalashtirilgan teskari osmos texnologiyasi asosida suv filtrlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “Innovation water filters” mas’uliyati cheklangan jamiyati ishga tushirildi.

– Hozirda jamiyatda soatiga 250 litrdan 100 ming litrgacha toza suv ishlab chiqarish quvvatiga ega teskari osmos texnologiyasi asosida suv filtrlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan, – deydi loyiha rahbari, yakka tartibdagi tadbirkor Sohib Jumayev. – Bir oyda 48 – 50 tagacha suv tozalovchi uskuna ishlab chiqarilib, texnik xizmat ko‘rsatish ham tashkil qilingan. Kelajakda respublikamizning barcha hududida suv filtrlariga xizmat ko‘rsatuvchi servis markazlari ochish, yirik tashkilotlar bilan suv filtrlari sohasida hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish niyatimiz bor.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan 2022 – 2024-yillar mobaynida umumiy maydoni 75 gektar bo‘lgan 30 dan ortiq issiqxona xo‘jaliklariga teskari osmos suv filtrlari o‘rnatib berildi. Bundan tashqari, “Har bir oila – tadbirkor” loyihasi doirasida ajratilgan kredit mablag‘lari evaziga yakka tadbirkorlik subyektlariga ana shunday mahsulotlar yetkazib berilib, 128 ta oilada tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyati yaratildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, bunday suv filtrlari maishiy xo‘jalik va ichimlik suvini tozalashga mo‘ljallangan. Ya’ni yer ostidagi hamda sho‘r suvni tozalaydi. Bu esa toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojni qanoatlantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan to‘liq ta’minlash endi uzoq yillik orzu emas.

Quyoshdan quvvat olib...

Tomdilik cho‘pon Saparboy Odilovning chorva otari shimoliy Qizilqumda – viloyat markazidan qariyb besh yuz kilometr olisda joylashgan. Ushbu kengliklar chorva uchun ancha qulay – o‘t-o‘langa boy yaylovni almashtirib, qurg‘oqchilik yoki qishning ayozli kunlariga chap berish mumkin.

Saparboy og‘a bu yerda chorvadorlar sulolasining yettinchi avlod vakili. Ota-bobolari kabi shu kengliklarni vatan tutib, unga mehrini bergan. Chorvaning ortidan ro‘zg‘or tebratib, orzu-havaslariga erishmoqda. Lekin otarni elektrlashtirish niyati yetti avlod almashib ham orzuligicha qolib kelardi.

– Bitta cho‘pon otariga elektr liniyasi tortish o‘zini oqlamasligi to‘g‘ri, – deydi S. Odilov. – O‘zimizning esa yetmish chaqirimdan uni tortib kelishga qo‘limiz kaltalik qilardi. Shu-shu ovulda cho‘pon chirog‘ini yoqib, tirikchilik qildik.

Cho‘pon otariga yaqinda quyosh paneli o‘rnatilib, oilaning beminnat elektr energiyasi bilan ta’minlanishi yo‘lga qo‘yildi. Ular endi tunlar charog‘onligidan tashqari televizor ko‘rib, yangiliklardan boxabar bo‘ladi. Mobil aloqa vositasida esa qavmu qarindosh va yaqinlari bilan xabarlashib turadi.

– Eng asosiysi, chorvaning suvini quduqdan tortishda tashvishlardan xalos bo‘ldik, – so‘zida davom etadi Saparboy og‘a. – Taqdirimizni chorva uchun bog‘lagan biz, cho‘ponlar uchun bu judayam qulay bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 14-iyundagi “Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining ijrosi asosida “yashil” energetika imkoniyatlaridan keng foydalanishning joriy etilishi olis cho‘l hududlarida nafaqat shu taxlit aholi xonadonlarini, balki ko‘ngillarni ham charog‘on qilmoqda. Shuning barobarida elektr energiyasi iste’molida yuklamalar kamayib, barqarorlik ta’minlanmoqda.

Fikrimizni viloyat miqyosida dalillaydigan bo‘lsak, yuqoridagi qaror asosida o‘tgan yili 1 188,2 mln. kVt-soatga yaqin elektr energiyasi iqtisod qilinib, belgilangan reja oshig‘i bilan bajarildi. Viloyatda o‘rnatilgan energiya manbalarining qariyb uchdan bir qismi tadbirkorlar hissasiga to‘g‘ri kelib, ular quyoshdan 10,2 MVt quvvatga teng elektr energiyasi olishmoqda. Bu o‘rtacha to‘rt ming aholining bir yillik elektr energiyasi iste’moliga teng.

– Biz yaqinda 20 kVtli quyosh panelini o‘rnatdik, – deydi navbahorlik tadbirkor Nasiba Jumayeva. – O‘z ehtiyojimizga yetib-ortadi. Eng muhimi, elektr energiyasi ta’minotida birorta ham muammoga duch kelayotganimiz yo‘q. Nasib etsa, ortiqcha elektr energiyasini sotishni rejalashtirib turibmiz.

Viloyatda – Karmanada quyosh, Muruntovda shamol elektr stansiyalarining ishga tushirilgani, qator hududlarda bu kabi muqobil energiya manbalari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilayotgani ham aholi farovonligini ta’minlamoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, viloyatda aholining bandligi, toza ichimlik suvi, elektr energiyasi ta’minoti bilan bog‘liq uzoq yillik muammolar yechimiga aloqador ayrim yutuqlargagina to‘xtaldik, xolos. Albatta, aholi farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladigan, ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlaydigan, hozircha ishga solinmagan resurs va imkoniyatlar hali talaygina. Ular ham bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqishiga shak-shubha yo‘q. Zotan, Prezidentimiz rahbarligida yurtimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar shahdu shiddati bunga guvohlik berib turibdi.

Temur ESHBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Dunyodagi daraxtlarning 38 foizi yo‘qolib ketish xavfi ostida

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining (IUCN) yangilangan Qizil ro‘yxatida e’lon qilingan Daraxtlarni global baholash tahliliga ko‘ra, dunyodagi daraxtlarning 38 foizi yo‘qolib ketish xavfi ostida.

Bu haqda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lum qildi.

Tahlillarga qaraganda, dunyodagi daraxtlarning aksariyati IUCN Qizil ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, baholangan 47 282 turidan kamida 16 425 tasi yo‘qolib ketishi mumkin. Daraxtlar hozirda Qizil ro‘yxatdagi turlarning to‘rtdan bir qismini tashkil etadi va xavf ostida qolgan daraxtlar soni barcha xavf ostidagi qushlar, sutemizuvchilar, sudraluvchilar va amfibiyalar sonidan ikki baravar ko‘p.

Mo‘ynoqqa yangi ichimlik suvi quvuri tortiladi

“O‘zbekistonning g‘arbiy qismida ichimlik suvi ta’minoti tizimlarini rivojlantirish” loyihasi doirasida Mo‘ynoq tumaniga yangi suv quvurini tortish ishlariga start berildi. Ushbu loyihaning hayotga tatbiq etilishi natijasida 1300 dan ortiq oilalarni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash imkoniyati yaratiladi.



Mo‘ynoqqa yangi suv quvurini tortish ishlari Osiyo taraqqiyot banki hisobidan moliyalashtirilayotgan bo‘lib, ushbu loyihaning umumiy qiymati 8,21 mln. dollarni tashkil etadi.

Loyiha doirasida tumandagi “Qiziljar” ovul fuqarolar yig‘inining Aliy, Hokim ota, Bo‘zatov, Amudaryo, Qipchaqdaryo, Talliq, Uchsay, To‘qmoq ota kabi ovullari hamda tuman markazidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlariga “Tuyamo‘yin” suv saqlagichidan ichimlik suvi yetkazib beriladi.

Qabulda 50 ga yaqin murojaatlar nazoratga olindi

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) Feruza Eshmatova navbatdagi fuqarolar qabulini o‘tkazdi. Unda 50 nafarga yaqin fuqarolar mehnat huquqlarining buzilishi, ijtimoiy yordam olish, uy-joy, afv, sud-huquq, tergov jarayonlari, oilaviy va mulkiy munosabatlarga oid hamda boshqa masalalarda murojaat qildi.

Mazkur murojaatlar nazoratga olinib, ayrimlariga huquqiy tushuntirishlar berildi, joyiga chiqib o‘rganish zarurati bo‘lgan murojaatlar Ombudsmanning mintaqaviy vakillariga yo‘naltirildi. Fuqarolar murojaatlarini har tomonlama o‘rganish zarur bo‘lgan hollarda mutaxassislar va tegishli tashkilotlar vakillari ham jalb etiladi.

Para kamondan otish bo‘yicha O‘zbekiston chempionati yakunlandi

Joriy yilning 27 – 30-oktabr kunlari Respublika Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida para kamondan otish bo‘yicha yoshlar va kattalar o‘rtasida O‘zbekiston chempionati tashkil etildi.



Bu galgi mamlakat chempionatida 60 nafarga yaqin merganlar g‘oliblik uchun o‘zaro bahs olib bordi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra umumjamoa hisobida kuchli uchlik – 1-o‘rin Toshkent shahri, 2-o‘rin Farg‘ona viloyati va 3-o‘rinda esa Samarqand viloyati, deya e’tirof etildi. G‘olib va sovrindorlar medal, maxsus diplom hamda esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

“Xalq so‘zi”.

21 – 23-noyabr kunlari poytaxtimizda “Ipak yo‘lida turizm” – 29-Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi bo‘lib o‘tadi.

YORQIN KELAJAK UCHUN “AQLLI” TEXNOLOGIYALAR

1 Sun’iy intellekt (AI – Artificial Intelligence) – bu kompyuterning inson aqliga xos bo‘lgan o‘rganish, qaror qabul qilish va harakatlarni bajarish qobiliyati o‘laroq matematika, biologiya, psixologiya, kibernetika kabi fanlar negizida paydo bo‘lgan. Sun’iy intellekt insoniyatga “aqlli” dasturlarni yozishga imkon beradigan va kompyuterlar bo‘yicha muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rgatadigan hamda jahonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan, insoniyatning hayot tarzini mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqishi mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyadir. Demak, sun’iy intellektni “aqlli” kompyuter dasturlari deb atash mumkin. O‘z navbatida, sun’iy intellektni yaratishda boshqa jihatni ham hisobga olish zarur bo‘ladi, ya’ni undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli tahdidlarni ham esdan chiqarmaslik lozim.

Jahon iqtisodiyoti tarmoqlari ichida keyingi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari, asosan, sanoatning mashinasozlik sohasini qamrab olgan bo‘lib, u mashinasozlik bozorining deyarli 70 foizini tashkil etmoqda. O‘z navbatida, sun’iy intellektning global bozori moliya, bank, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish, sug‘urta, energetika, mudofaa, telekommunikatsiya, hukumat idoralari va tashkilotlari faoliyatiga ham sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt keyingi yillarda jahonda iqlim o‘zgarib, turli kasalliklar tarqalishi tufayli tibbiyot sohasida tez rivojlandi. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yilga borib, sun’iy “aql”dan foydalanishda sog‘liqni saqlash tizimi mutlaqo yetakchilikni qo‘lga oladi.

Sun’iy intellektni yanada rivojlantirish masalasida dunyoning yirik korporatsiyalari, xususiy investorlar va davlatlar hukumatlari tomonidan katta miqdorda moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Masalan, dunyoning eng boy insonlaridan biri Charlz Lyan “Super Micro Computer” kompaniyasida sun’iy intellektni rivojlantirish maqsadida 6,1 mlrd. dollar sarmoya yo‘naltirilgan bo‘lsa, yana bir milliarder Kvak Don Shin “Hanmi Semiconductor” kompaniyasida sun’iy intellekt rivojiga



2,9 mrld. dollar hajmda mablag‘ sarflagan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yakunida sun’iy intellekt bozori hajmi 298 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda, hozirda esa bu 207 mlrd. dollarga teng. Ushbu raqamlar 2030-yilga borib taxminan 1,84 trln. dollarga yetishi mumkin. Bundan olinadigan daromad hajmi, masalan, dasturiy mahsulotlarni yaratishdagi sun’iy intellektdan ko‘riladigan daromad joriy yilda 94,4 mlrd. dollarga teng bo‘ladi.

Yurtimizda sohaning rivojlanish istiqbollari

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham sun’iy intellektni rivojlantirishga davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Prezidentimizning “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini keltirish mumkin. Mazkur hujjatlarda sun’iy intellektni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish belgilangan. Natijada yurtimizda ilk bor Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Ustuvor tarmoqlar va sohalar, ya’ni bank, moliya, soliq, transport, energetika, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, “elektron hukumat” kabilarda sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlantirilib, ular uchun malakali kadrlar tayyorlanyapti.

Bugungi kunda yurtimizda qator sohalar va tarmoqlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligida yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi ishini monitoring qilish, bank tizimida tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchilikni baholash, moliya sohasida byudjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish, soliq sohasida yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda “aqlli” texnologiyalardan foydalanilyapti.

> *“Ma’lumotlarga ko`ra, 2024-yil yakunida sun’iy intellekt bozori hajmi 298 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda, hozirda esa bu 207 mlrd. dollarga teng. Ushbu raqamlar 2030-yilga borib taxminan 1,84 trln. dollarga yetishi mumkin. Bundan olinadigan daromad hajmi, masalan, dasturiy mahsulotlarni yaratishdagi sun’iy intellektdan ko`riladigan daromad joriy yilda 94,4 mlrd. dollarga teng bo`ladi.”*

Mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish jarayonida iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish, shuningdek, 2025-yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik subyektlarining ulushini 90 foizga yetkazish, sanoat korxonalarida tatbiq etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, “internet buyumlar”, sun’iy intellekt kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilgacha, apparat qismini esa 2030-yilga borib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliylashtirish ko‘zda tutilgan. Natijada yurtimizda raqamli texnologiyalar milliy bozori rivojlantirilishi IT-park asosida ilg‘or texnologiyalardan, xususan, “Big Data”, “IoT”, “AI” blokcheyn va boshqalardan unumli foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqlli” yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Malakali kadrlar tayyorlash – ustuvor vazifa

Albatta, bunday yuqori ko‘zlangan marralarga yetishish uchun raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirishga alohida e’tiborni qaratish darkor. Agar biz shu sohada malakali kadrlarni tayyorlamas ekanmiz, sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan har qanday chora-tadbir, yo‘naltirilgan investitsiya va moliyalashtirish jarayonlari ko‘zlangan natijani bermaslikda davom etaveradi. Demak, sun’iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlash jarayonida maktabgacha ta’lim, umumta’lim, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi bosqichlar ham qamrab olinishi, ya’ni ushbu sohada kadrlar tayyorlashning ekotizimi yaratilmog‘i joiz.

Mamlakatimizda sun’iy intellekt va ITni rivojlantirish hamda malakali kadrlarni tayyorlashda qator vazifalar samarali hal etilsa, albatta, ko‘zlangan marraga yetish mumkin. Xususan, iqtisodiyotimizning turli sohalari uchun sun’iy intellekt yo‘nalishida malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorijning yetakchi universitetlaridan o‘qituvchilar va amaliyot mutaxassislarini jalb qilish, oliy ta’limda sun’iy intellekt bo‘yicha bakalavriat va magistrlarning o‘quv standartlarini xalqaro tajribadan keng foydalangan holda doimiy takomillashtirib borish, fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga sun’iy intellekt hamda shu kabi yaqin kelajak texnologiyalari to‘g‘risida kerakli me’yorlarni kiritish zarur bo‘ladi.

> Mamlakatimizda hayotni tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan kelajak texnologiyalari, jumladan, sun’iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirib borish bosh va qat’iy maqsad o‘laroq belgilandi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, biz o‘z oldimizga mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Nurbek RIZAYEV,
Toshkent kimyo xalqaro universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.

Tabiat in’omi



Xaridorgir Demirsad olmasi

So‘x tumanining mashhur Chashma bulog‘i bir necha qishloqlarga obihayot baxsh etib, meva va sabzavotlarga o‘zgacha ta’m beradi. Shu bois So‘xda yetishtiriladigan olma, nok, o‘rik, shaftoli kabi mevalar, kartoshka singari sabzavot mahsulotlari juda ham xaridorgir.

Ichki bozor ehtiyojidan ortgan meva-sabzavotlar qo‘shni davlatlarga ham eksport qilinadi. Ayni paytda tumanda yurtimiz bozorlariga yiliga 15 ming tonnadan ziyod olma yetkazib beriladi. Shu kunlarda So‘xda olma hosilini yig‘ib olish mavsumi uyushqoqlik bilan olib borilmoqda.

– Qishlog‘imizga Chashma bulog‘idan suv keladi, – deydi Demirsad qishlog‘ida istiqomat qiluvchi G‘ayratjon Do‘stmatov. – Demirsad olmasini bir tishlasangiz, yuzingizga suvi sachraydi, mazasiga gap yo‘q. Bu olmani tabiiy usulda qish-bahor mavsumida ham sifatli saqlash mumkin.

Ushbu oila a’zolari xonadondagi 8 sotix tomorqadan joriy yilda 2 tonna olma hosili olishni maqsad qilgan. Chorvachilik, kartoshka yetishtirish oilaning yana bir daromad manbai hisoblanadi.

Aytish joizki, Demirsad qishlog‘i So‘xda olma yetishtirish borasida eng mirishkor hudud sifatida tanilgan.

“Xalq so‘zi”.



REKLAMA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

vakant (bo‘sh) professor-o‘qituvchilar lavozimiga tanlov e’lon qiladi.

1.	Tolali materiallarni dastlabki ishlash	professor, dotsent
2.	Mexanika muhandisligi	professor, dotsent, assistent
3.	O‘zbek va xorijiy tillar	katta o‘qituvchi, assistent
4.	Mehnat muhofazasi va ekologiya	dotsent, katta o‘qituvchi
5.	Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat	katta o‘qituvchi, assistent
6.	Charm va poyabzal muhandisligi	dotsent, katta o‘qituvchi, assistent
7.	Ipak va yigirish texnologiyasi	dotsent, assistent
8.	Buxgalteriya hisobi va marketing	kafedra mudiri, assistent
9.	Iqtisodiyot va menejment	kafedra mudiri, dotsent, assistent
10.	Kimyo va matbaa muhandisligi	dotsent
11.	Tikuv buyumlar texnologiyasi va raqamli injiniring	assistent
12.	Tabiiy fanlar	dotsent, assistent
13.	Oliy matematika va kompyuter grafikasi	dotsent, katta o‘qituvchi, assistent
14.	Avtomatlashtirish va dasturiy injiniring	katta o‘qituvchi, assistent
15.	To‘qimachilik matolari texnologiyasi	professor, dotsent, assistent
16.	Materialshunoslik va standartlashtirish	dotsent, assistent
17.	Moda va dizayn	katta o‘qituvchi

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar hamda ixtirolar ro‘yxati, malaka oshirganlik to‘g‘risida hujjatlar nusxalarini topshirishi lozim.

Arizalar e’lon chiqqan kundan boshlab **bir oy** muddatda qabul qilinadi.

Eslatma:
mazkur institutda ishlovchi shaxslar o‘tgan muddat bo‘yicha kafedrada hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o‘tkazadi.

Manzil:
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko‘chasi 5-uy, 1-bino, 208-xona.
Telefon: 71-253-17-78.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

quyidagi lavozimlarga tanlov e’lon qiladi:

1. Menejment nazariyasi va amaliyoti kafedrasining mudiri (1 shtat birligi);
2. Davlat boshqaruvining siyosiy asoslari kafedrasining katta o‘qituvchisi (0.5 shtat birligi).

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

1. Rektor nomiga ariza;
2. Xodimlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa;
3. Ma’lumoti, ilmiy daraja, ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari;
4. Pasport nusxasi;
5. Ilmiy ishlar ro‘yxati (ilmiy kotib tomonidan tasdiqlangan holda);
6. Malaka oshirish to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi.

Tanlovda quyidagi nomzodlarga ustuvorlik beriladi:

tegishli ixtisoslik bo‘yicha ilmiy daraja (DSc) va ilmiy unvonga (professor), shuningdek, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning fan doktori (DSc) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja va unvonlarga ega;

davlat tilini mukammal, shuningdek, xorijiy tillardan birini (ingliz, fransuz va nemis) erkin darajada bilgan va IELTS/TOEFL sertifikatiga ega bo‘lgan (“SEFR B2”, “C1”, “C2”);

“SCOPUS” va “WEB OF SCIENCE” bazalariga kiritilgan nufuzli jurnallarda maqola chop etganligi va “h-index”ga ega;

zarur bo‘lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim hamda ko‘nikmalar (pedagogik mahorat, jamoa va tinglovchilar bilan samarali ishlay olish)ga ega;

dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va amaliy dasturlardan foydalanish bilim hamda ko‘nikmalariga ega bo‘lgan;

mutaxassisligi bo‘yicha xalqaro nufuzli (TOP – 500) oliy ta’lim muassasasini tamomlagan yoki unda faoliyat yuritgan, shuningdek, malaka oshirgan yoki stajirovka o‘tagan nomzodlar.

Hujjatlar e’lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddat ichida qabul qilinadi.
Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 45-uy.
Tel.: 71-232-60-62, 71-239-89-00.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda joriy yilning 1-oktabr holatiga sanoat sohasida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni 113 667 taga yetdi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-878A

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.10 Topshirildi — 23.10 1 2 3 4 5 6